

FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN LABGULDOSHLAR OILASI AYRIM DORIVOR VAKILLARINING XALQ TABOBATIDA QO'LLANILISHI**Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li***FarDU, Agrar qo'shma fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasi vakillari orasida bir qancha istiqbolli, ahamiyatli va o'rganishga ehtiyoj seziladigan turlar anchaginani tashkil qiladi. Ular orasida dorivor, oziq-ovqat bop, efir-moyli, oshlovchi, bo'yoqbop va boshqa turdagi ahamiyatga ega bo'lgan turlarni uchratishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *cho'l yalpiz, efir-moyli, oshlovchi, bo'yoqbop, oziq-ovqat, tog'rayhon, limono't.*

Cho'l yalpiz (*Ziziphora tenior L.*) o'simligi unchalik katta bo'lmagan, bo'yi 30-35 sm. bo'lgan o'simlik. Butun O'zbekiston bo'ylab, cho'l mintaqasidan to tog'ning o'rta qismigacha bo'lgan xududlarda mayin tuproqli va tosgli tuproqlarda o'sadi.

Cho'l yalpiz (*Ziziphora tenior L.*) o'simligining barglari va butin tanasida efir moylari to'planadi. Ushbu efir moyining tarkibida 45-50 % pulegon moddasi mavjud.

Xalq tabobatida cho'l yalpiz (*Ziziphora tenior L.*) ning barglaridan tayyorlangan qaynatma bolalarda yuqori nafas yo'llari hastaliklarida, oshqozon og'riqlarida, ko'ngil aynishida, sifilida ishtaha ochuvchi va siydik haydovchi sifatida qo'llaniladi. Gullaridan tayyorlangan ekstrakt va o'tlaridan tayyorlangan damlama ham turli hastaliklarda ishlatiladi.

Tog'rayxon (*Origanum tyttanthum Gontsch.*) o'simligi bo'yi 30-90 sm. bo'lgan ko'p yillik dorivor o'simlik. O'simlikning gullasg davrida yig'ib-terib olingan yer ustki qismidan dorivor maqsadlarda foydalaniladi. Uning tarkibida 2,2% efir moyi, 6-8% tanidlar, mikroelementlar, organik kislotalar, C vitamini, timol, karvakrol moddalari hamda uning mevasida 28% o'simlik moylari uchraydi.

Tog'rayxon (*Origanum tyttanthum Gontsch.*) o'simligidan xalq tabobatida ham, ilmiy meditsinada ham birdek foydalaniladi. Uning o'tlaridan tayyorlangan damlama balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi, o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Uning qaynatma va choylari yurak og'riqlarida, tutqanoqda, yo'talda, tuberkulyozda, ich ketganda, jigar hastaliklarida gipertoniya, epilepsiyada, ishtaha ochishda, ovqat hazm qilishni yaxshilashda ishlatiladi.

Dorivor limono't (*Melissa officinalis L.*) o'simligi respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida, daraxt ostida, soya-salqinlarda, tog' o'rta qismlarida uchraydi. Dorivor maqsadlarda o'simlikning barglari va novdasining uchki qismlari qo'llaniladi.

Dorivor limono't (*Melissa officinalis L.*) o'simligining yer ustki organlari tarkibida 0.02-0.14% efir moylari, 150 mg% C vitamini, 5% tanidlar, achchiq moddalar, oshlovchi moddalar, organik kislotalar va efir moylari mavjud.

Dorivor limono't (*Melissa officinalis* L.) o'simligining dorivorlik xususiyatlari juda qadim zamondan beri ma'lum. Klavdiy Galen, Beruniy, Ibn Sino ishlarida ham bu o'simlik haqida ma'lumotlar bor.

Dorivor limono't (*Melissa officinalis* L.) o'simligi juda ko'p turdagi xilma-xil kasalliklarni dvolashda xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda keng qo'llaniladi.

Turkiston arslonqulog'i (*Leonurus turkestanicus* V. Krecz.) o'simligi ko'p yillik, bo'yi 40-150 sm. bo'lgan dorivor o'simlik. Dorivor maqsadlarda uning gullash davrida terib olingan 30 sm lik yer ustki qismidan foydalaniladi.

Turkiston arslonqulog'i (*Leonurus turkestanicus* V. Krecz.) o'simligining yer ustki qismlari tarkibida 0,4% alkaloidlar, saponinlar, 2,14-9% oshlovchi moddalar, achchiq va shirin moddalar, hamda 0,05% o'simlik moylari uchraydi.

Turkiston arslonqulog'i (*Leonurus turkestanicus* V. Krecz.) o'simligidan xalq tabobatida ilmiy meditsinada yurak va asab tizimi bilan bog'liq hastaliklarda foydalaniladi.

O'rmalovchi tog'jambili (*Thymus serpyllum* L.) o'simligi ko'p yillik dorivor o'simlik. O'simlikning yer ustki qismlari dorivor hisoblanadi va u yoppasiga gullagan davrida yig'ib olinadi hamda soyada quritiladi.

O'rmalovchi tog'jambili (*Thymus serpyllum* L.) o'simligining yer ustki qismlarida ancha miqdorda efir moylari mavjud. Undan tashqari o'simlik tarkibida oshlovchi moddalar, achchiq modda va bo'yoqbop moddalar bor.

O'rmalovchi tog'jambili (*Thymus serpyllum* L.) o'simligining qaynatmalari, suyuq ekstraktlari shamollash kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Undan tashqari dezinfeksiya xususiyatiga ega.

O'rmalovchi tog'jambili (*Thymus serpyllum* L.) o'simligi ham xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda keng miqyosda qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YAHTI:

1. Parov.O'.P, Shermatov.G`. O'simliklarni muxofaza qilish umumxalq ishi – Toshkent, 1991.
2. Pratov O'., Yuldashev A., Bahromov A. O'zbekiston tabiati. O'simliklar. — Toshkent, 2011.
3. Sultonov.G. Tabiiy boyliklarni muxofaza qilish umumxalq ishi –Toshkent, 1972.
4. Sahobiddinov.S.S. O'simliklar sistematikasi II-tom –Toshkent, 1966.
5. Usmonxodjayev A., Basitxonova E., Pratov O'., Djabbariv A. O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarning etimologik zamonaviy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2018.
6. Vvedenskiy.A.I. O'zbekiston florasi V-tom –Toshkent, 1961.
7. Haydarov Q.H. Hojimatov Q.H O'zbekiston o'simliklari - Toshkent, 1976.
8. To`xtayev.A. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish –Toshkent, 2001